

## O‘RXUN-ENASOY YODGORLIKLARIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK VA SEMANTIK TAHLILI

*Urakbaeva Nuraybat Maxset qizi*

*Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola qadimgi yozma yodgorliklar, xususan, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqiga bag‘ishlanib, unda mazkur masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan. “To‘nyuquq” bitigidagi sodda gaplarning darak, so‘roq, buyruq mazmunidagi ayrim namunalari sintaktik va semantik jihatdan tahlilga tortilgan.

**Аннотация.** Настоящая статья посвящена исследованию древних письменных памятников, в частности Ўрхун-Энисейских памятников, и обобщает проведённые по данной теме исследования, научно-теоретические взгляды. На материале памятника «Тўнюкук» синтаксически и семантически проанализированы некоторые примеры простых предложений с содержанием повествовательных, вопросительных и побудительных высказываний.

**Annotation.** This article is devoted to the study of ancient written monuments, in particular the Orkhon-Enasoy inscriptions, and summarizes the research and scholarly-theoretical views conducted on this subject. Using the “Tonyukuk” inscription as material, selected examples of simple sentences with declarative, interrogative, and imperative meanings are analyzed from both syntactic and semantic perspectives.

**Kalit so‘zlar:** *Qadimgi turkiy til, O‘rxun-Enasoy, To‘nyuquq, shad, Ko‘k Tangri, darak, so‘roq, buyruq gaplar.*

**Ключевые слова:** *древнетюркский язык, Орхон-Энесой, Тонюкук, шад, Көк Танри, повествовательные, вопросительные, побудительные предложения.*

**Key words:** *Old Turkic language, Orkhon–Enasoy, Tonyukuk, shad, Kök Tangri, declarative, interrogative, imperative sentences.*

O‘rxun-Enasoy bitiklari VIII asrga mansub bo‘lib, ular hozirgi Mongoliya hududidagi O‘rxun vodiysida aniqlangan qadimgi turkiy yozma yodgorliklar majmuasi hisoblanadi. Mazkur bitiklar turkiy xalqlarning ilk yozma manbalari sifatida ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti va genezisini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ushbu yodgorliklar matnida o‘sha davr turkiy jamiyatining siyosiy va harbiy faoliyati, davlat boshqaruvi mexanizmlari, ijtimoiy tuzilmasi hamda diniy tasavvurlari haqida muhim va qimmatli ma‘lumotlar aks etgan. Xususan, Kultegin, Bilga xoqon va To‘nyuquq nomlari bilan bog‘liq bitiklar hamda O‘rxun yozuvlari mazkur majmuaning eng muhim namunalaridan hisoblanadi.

Har bir bitik o‘z davrining tarixiy jarayonlarini, siyosiy voqealar rivojini, shuningdek, davlat arboblari va harbiy sarkardalarning faoliyatini yoritish bilan birga, boshqaruv tamoyillari va mafkuraviy qarashlarni ham ifodalaydi. Shu jihatdan, O‘rxun–Enasoy yodgorliklari qadimgi turkiy xalqlarning siyosiy integratsiyaga intilishi, mustaqillik g‘oyalarini ilgari surishi hamda milliy qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayonini tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘rxun-Enasoy bitiklari faqat tarixiy voqealarni bayon qilmaydi, balki xalqning ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini ham tarannum etadi. Bitiklarda vatanparvarlik, fidoyilik, sodiqlik, jasorat va adolat kabi tushunchalar markaziy o‘rinda turadi. Qahramonlarning ideal xususiyatlari sifatida ular davlat uchun fidoyilik va xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish tavsiya qilinadi. Shuningdek, bitiklarda insonning axloqiy kamoloti, hukmdorning odil va dono bo‘lishi, xalqni birlashtirishdagi roli haqida falsafiy fikrlar ham mavjud. Bu jihatlar bitiklarni nafaqat tarixiy, balki falsafiy-axloqiy asarlar sifatida ham qadrlil qiladi.

O‘rxun-Enasoy bitiklari turkiy xalqlar adabiy taraqqiyotining dastlabki bosqichini belgilovchi muhim manba sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu yodgorliklar turkiy yozma adabiyotning shakllanishi uchun asos yaratib, keyingi davrlarda yuzaga kelgan adabiy janrlar rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Bitiklarda ifodalangan qahramonlik ruhiyati, ijtimoiy-siyosiy mazmun hamda ma‘naviy-axloqiy g‘oyalar keyinchalik turkiy xalqlarning og‘zaki va yozma adabiy an‘analarida izchil davom ettirilgan. Xususan, o‘rta asr turkiy adabiyotining yetuk namunalarini hisoblangan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i hamda Alisher Navoiy g‘azallarida mazkur qadimgi bitiklarga xos epik tafakkur va yuksak ma‘naviy an‘analarning izlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari turkiy xalqlar adabiy merosining shakllanishida asosiy va hal qiluvchi omillardan biri sifatida baholanadi.

O‘rxun-Enasoy bitiklari turkiy xalqlar tarixida ilk yozma til yodgorligi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bitiklarda run yozuvi ishlatilgan bo‘lib, bu yozuv turi “turkiy run alifbosi” yoki “O‘rxun yozuvi” deb ataladi. Alifbo 38 ta belgidan iborat bo‘lib, o‘ngdan chapga qarab yozilgan. U turkiy xalqlarning o‘z yozuv tizimiga ega bo‘lganini isbotlaydi<sup>1</sup>. Bitiklarda qo‘llangan til qadimgi turkiy til sifatida tavsiflanadi va u grammatik tuzilishi hamda leksik xususiyatlari jihatidan zamonaviy turkiy tillar – o‘zbek, turk, uyg‘ur, qozoq va boshqalar bilan genetik yaqinlikni namoyon etadi. Shu bois, O‘rxun yozma yodgorliklari turkiy tillarning tarixiy rivojlanish jarayonini tadqiq etishda asosiy va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi.

O‘rxun bitiklarining yaratilish jarayoni Bilga Xoqon davriga to‘g‘ri kelib, uning ukasi Kultegin vafotidan so‘ng, ya‘ni milodiy 732-yildan e‘tiboran boshlangan. Ushbu bitiklarning yaratilishida muhim rol o‘ynagan shaxs To‘nyuquq bo‘lib, u davlat arbobi,

<sup>1</sup> Klyashtornyy S.G. Ancient Turkic inscriptions and literature. Moscow: Nauka.1977.

harbiy sarkarda va dono maslahatchi sifatida tanilgan. Mazkur yozma yodgorliklarda jamiyatni hushyorlikka undash, siyosiy birlikni mustahkamlash hamda vatanga sadoqat g'oyalarini targ'ib etish yetakchi o'rin tutadi. Shu bilan birga, bitiklarda xalq manfaatiga xizmat qilish, davlat ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatish kabi ijtimoiy-ma'naviy tamoyillar asosiy mafkuraviy yo'nalish sifatida ilgari surilgan. Bitiktoshlarda "Kök Tengri" (Ko'k Tangri) tushunchasining mavjudligi, yodgorliklarni turkiy xalqlarga oid ekanligini dalillaydi.

O'rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqida dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messershmith yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilgan edilar. Dastlab, O'rxun, Selenga va To'li daryolari atrofidan – Shimoliy Mo'g'ulistondan toshga bitilgan obidalar topildi. Ular O'rxun yodgorliklari nomini oldi. Enasoy daryosi qirg'oqlarida topilgan yodgorliklar ham shu nom bilan ataladi<sup>2</sup>.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni o'rganish masalasi G.Aydarov, S.G.Klyashtorniy, S.Y.Malov kabi olimlar limning asarlarida ham atroflicha yoritilgan<sup>3</sup>. O'rxun-Enasoy yodgorliklarini o'rganishga A.Fitrat, O.Sharafiddinov, N.Mallayev, N. Mallayev, A.Qayumov, A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, E.Umarov, T.Salimov, B.To'xliyev, N.Rahmonov, Q.Sodiqov kabi o'zbek olimlar ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

O'rxun-Enasoy bitiklari turkiy xalqlarning madaniy merosida ajralmas o'rin egallaydi va ularni o'rganish bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida ham qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, xususan, O'rxun-Enasoy obidalarining tadqiqi masalasi hozir ham davom qilmoqda. Jumladan, Q.Sodiqovning "Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi" mavzusidagi tadqiqotida turkiy yodgorliklarning til xususiyatlarini va tarixiy, falsafiy tomonlarini tadqiq qiladi<sup>4</sup>. N.Rahmonov, B.Matboboyevlarning esa "O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari" nomli tadqiqotida mazkur yodgorliklarni matnini o'rganib, ularning nazariy va badiiy jihatlarini yoritib berdi<sup>5</sup>. G.Soatova tomonidan ham mazkur masalaga tibor qaratilib, "O'zbekistonda Urxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi" mavzusidagi izlanishlarida o'z aksini topadi<sup>6</sup>. Sh.Mahmadmurodov tomonidan "Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning til xususiyatlari" tahlil qilinib, mazkur tadqiqotda eski o'zbek adabiy tilining ilk davrlari, xususan X-XIV asrlari

<sup>2</sup> Mirzayeva D. O'rxun-Enasoy yodgorliklari Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixiga oid asosiy manbalar siatida. *Oriental renaissance: Innovative educational, natural and social sciences*. – Toshkent, 2022. – № 6. – B.655-660.

<sup>3</sup> Айдаров Г. Язык орхонского памятника Билге Кагана, Алмаата, 1966., Кляшторний С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии, Москва, 1964., Малов С.И. Памятники древнетюркской письменности, Москва, 1951., Малов С.И. Енисейская письменность тюрков, Москва, 1952.

<sup>4</sup> Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi-Toshkent: Sharqshunoslik institute, 2006.

<sup>5</sup> Rahmonov N., B.Matboboyev. O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari. – Toshkent: Fan, 2006.

<sup>6</sup> Soatova G. O'zbekistonda Urxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqi. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020-yil, 6-son.

yoza adabiy tilini o‘zida aks ettirgan asarlarning lingvistik jihatdan tahlil amalga oshirilgan. Mazkur davr hodisalari VII-IX asrlarga xos bitiklar tili bilan ham qiyosiy o‘rganilib tadqiq qilingan.<sup>7</sup>

Mazkur tadqiqot Orxun-Enasoy yodgorliklari tilini lingvistik jihatdan tadqiq qilishga bag‘ishlanib, bitiktoshlar ichida eng mashhuri bo‘lgan, “To‘nyuquq” bitigi obyekt qilib olindi. “To‘nyuquq” bitigini tahlil qilish jarayonida, shunisi ma‘lum bo‘ldiki, uning matnida sodda gap va qo‘shma gap qolipining barchasiga namuna bo‘la oladigan gap namunalari mavjudligi aniqlandi.

Gaplar kommunikativ maqsadiga ko‘ra darak, so‘roq, buyruq gaplarga bo‘linadi. “To‘nyuquq” bitigida mazkur sodda gap turlarining barchasiga namuna bo‘la bo‘ladigan gaplar qo‘llanilgan.

“To‘nyuquq” bitigidagi darak mazunidagi gaplarga namunalar: *“Turk sir xalqi yerida boshqa ega yurmasin”* jumlasida O‘rxun-Enasoy bitiklari va boshqa qadimgi turkiy yodgorliklarda shunga o‘xshash iboralar xalqni birlashishga, o‘z hududini himoya qilishga chaqirish maqsadida ishlatilgan.

*“Yetti yuz kishini uyushtiradigan boshlig‘i shad edi”* jumlasidagi “Shad” turkiy davlardagi harbiy unvon bo‘lib, mazkur unvonni olgan shaxs yirik harbiy va ma‘muriy mansabdor shaxs hisoblanadi.

Yoki *“Dono To‘nyuquq xushyor, u o‘zi biladi”* jumlasida To‘nyuquqning o‘zi tomonidan aytilgan. Undagi *Dono To‘nyuquq* – davlat arbobi, maslahatchi bo‘lib, “o‘zining doimo hushyor ekanligi, o‘z mas‘uliyatini va vazifalarini to‘liq anglshi, shuningdek, davlat ishlarini boshqarish va xalqni to‘g‘ri yo‘naltirishda dono rahbar sifatida faoliyat ko‘rsatishi” ta’kidlangan.

“To‘nyuquq” bitiktosh matnida so‘roq mazmunidagi gaplar juda kam uchraydi. *“Allaqanday yerdagi xoqonlik xalqqa don so‘q bo‘lsa ham, nima g‘ami bo‘lar edi?!”* jumlasida so‘roq gap shaklida bo‘lib, “har qanday hududdagi xoqonlik xalqning farovonligini ta‘min qilsa, hech qanday qayg‘u yoki muammo yuzaga kelmaydi” mazmunini ifodalagan.

Mazkur bitiktosh matnida buyruq mazmundagi gaplar juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llanilganligi tahlillar jarayonida aniqlandi. Ushbu tip gaplarda, asosan, buyurish, undash, birlashish ma‘nolari yetakchilik qiladi. Xususan,

*“Tabg‘ach, sen o‘ngdan hujum qil!”* jumlasida buyruq gap shaklida bo‘lib, Tabg‘ach qo‘shiniga o‘ng qanotdan hujum qilish buyurilgan. Yoki *“Xitoy oldindan hujum qil!”* jumlasida Xitoy qo‘shiniga oldingi frontdan ya‘ni oldindan harakatlanish yoki hujum qilish buyurilganligi aks etgan.

Shuningdek, mazkur bitiktosh matnida *“Xoqonimga buni aytib, qo‘shinni yo‘lga soldim, otlantir!”*, *“Ani daryosidan boraylik! – dedim”*, *“Xoqonim bilan lashkarlar tortdik, tangri yorlaqasin!”* kabi buyruq mazmundagi gaplar juda ko‘p o‘rinlarda faol

<sup>7</sup> Mahmadmurodov Sh. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning til xususiyatlari tahlili. – Buxoro, 2010. – B.84.

qoʻllanilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Turkiy yozma yodgorliklar, xususan, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari matnlarini oʻrganish va tadqiq qilish dolzarblik kasb etadi. Mazkur yodgorliklarning matnlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish, fanimiz uchun yangi maʼlumotlar berishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Klyashtornyy S.G. Ancient Turkic inscriptions and literature. Moscow: Nauka. 1977.
2. Mahmadmurodov Sh. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning til xususiyatlari tahlili. – Buxoro, 2010. – B.84.
3. Mirzayeva D. Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari Markaziy Osiyoning ilk oʻrta asrlar tarixiga oid asosiy manbalar siatida. Oriental renaissance: Innovative educational, natural and social sciences. –Toshkent, 2022. – № 6. – B.655-660.
4. Rahmonov N., B.Matboboyev. Oʻzbekistonning koʻhna turkiy-run yozuvlari. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Soatova G. Oʻzbekistonda Urxun-Enasoy yofgorliklari tadqiqi. Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali, 2020-yil, 6-son.
6. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi-Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2006.
7. Айдаров Г. Язык орхонского памятника Билге Кагана, Алмаата, 1966.
8. Кляшторний С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии, Москва, 1964.
9. Малов С.Й. Енисейская письменность тюрков, Москва, 1952.
10. Малов С.Й. Памятники древнетюркской письменности, Москва, 1951.